

MATERIKLAR VA OKEANLAR TABIIY GEOGRAFIYASI KURSINING JOY NOMLARIDAN FOYDALANIB O'QITISH TEKNOLOGIYASI (Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursining dunyo okeani va uning qismlari mavzusida joy nomlaridan foydalanib o'qitish texnologiyasi)

Arabboyev Asliddin Rafiqjon o'g'li

Andijon davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti

+998901403566

Annotatsiya

Toponimika yunoncha topos — joy va onoma (yoki onima) — nom so'zlaridan tarkib topgan. Joy nomlari toponimiylar bir necha turlarga bo'linadi. Masalan, gidronomiya, oronomiya, oykonomiya, polinimiya, urbanonomiya, mikrotoponimiya kabi turlarga bo'linadi. Ushbu maqolamiz orqali Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursining Dunyo okeani va uning qismlari mavzusida joy nomlaridan foydalanib o'qitish texnologiyasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Adriatika dengizi, Azov, Arafur, Barens, Kara, Karib, Kaspiy, Laptevlar

KIRISH

O'quvchilar mакtab ostonasiga qadam qo'yib boshlabdiki, tevarak-atroflaridagi yerlarni, daryo-ko'llarni, tog'laru qir-adirlarni, o'tloq yaylovlarni ma'lum bir nom bilan atashganlar. Toponimika yunoncha topos — joy va onoma (yoki onima) — nom so'zlaridan tarkib topgan. Joy nomlari toponimiylar bir necha turlarga bo'linadi. Masalan, gidronomiya, oronomiya, oykonomiya, polinimiya, urbanonomiya, mikrotoponimiya kabi turlarga bo'linadi.

Geografiya ta'limi tizimida o'zi yashayotgan joyining ma'nosini, uning joylashgan o'rnnini bilib olish juda muhim hisoblanadi. Ta'limning ushbu texnologiyasi o'quvchilarda Vatanni sevish, uni ardoqlash, o'z tarixini bilish kabi muhim tushunchalarni shakllantirish hamda milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashda o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi. Mavzuning dolzarblik darajasi ham ana shundadir.

ADABIYOTLAR TAHЛИILI VA METODOLOGIYA

Maktablarda 2022-2023 o'quv yilidan boshlab o'qitala boshlayotgan 7-sinf Materiklar va Okeanlar tabiiy geografiyasi kursining mualliflari M. T. Mirakmalov SH. M. Sharipov M. M. Avezov M. T. Hojiyevalardir.

Ushbu fan o'quvchilarni Yer haqidagi tushunchalarini mustahkamlaydi. Yer yuzidagi yirik suvlik va quruqliklar — materiklar va okeanlar, ularning qismlari tabiat, ularda sodir bo'layotgan o'zgarishlar bilan tanishtiradi.

Ushbu darslikni o'qish orqali siz materiklar va okeanlarni o'rgangan sayyoohlarning faoliyati, turli materiklar iqlimi, suvlari, tabiat zonalari, okeanlar va ularning yirik qismlari — dengizlar, qo'litiq va bo'g'izlar tabiat bilan yaqindan tanishtiradi. Ularni bilish, tahlil qila olish esa yurtimiz tabiatida kuzatilayotgan o'zgarishlarni tushunishingizda, ularni tahlil qilish orqali kelajakda Yer yuzi va

mamlakatimiz tabiatida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ekologik va geoekologik muammolarning oldini olishga qaratilgan ishlarda faollikka chorlaydi.


Darslik beshta bobdan iborat bo'lib, to'rtinchi bobni o'rganish davomida o'quvchilar Dunyo okeani, dengizlar, ulardag'i suvning xususiyatlari va materiklar tabiatи shakllanishida okeanlarning ahamiyati haqida tushunchalar beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursining Dunyo okeani va uning qismlari mavzusida toponimikaning gidronomiya yo'nalishi bo'yicha o'qitish texnologiyasi quyidagicha olib boriladi.

1. Quyidagi xaritalarda raqamlarda tasvirlangan dengizlarni nomini toping.

Dunyoning tabiiy xaritasida beshta havzani ajratish mumkin. Ular Tinch, Atlantika, Hind, Shimoliy Muz okeani havzalari va berk havzalardir. Daryo qaysi havzaga o'z suvini quysa, o'sha havzaga tegishli bo'ladi (31-rasm).



Materiklar yarimshari



Активация Windows
Чтобы активировать Windows необходимо вставить к параметрам компьютера.

Masalan; quyidagi jadvalda 9 raqami bilan berilgan dengizning nomi Adriatikadir.

Toponimikasi. O'rta dengizning bir qismi hisoblanadi. Italiyaning shimoliy-sharqiy sohilidagi Adriya shahri nomi bilan bog'liq. Yugoslav tillarida Yadran dengizi deyiladi.

Xaritada 15 raqami bilan Azov dengizi tasvirlangan.

Toponimikasi. Don daryosining quyilish joyida bo'lgan Azov shahri nomidan olingan. Bu dengizning qadimgi nomi Meoti hisoblanadi.

Xaritada 51 raqami Hind okeani havzasiga qarashli Arafur dengizi tasvirlangan. Toponimikasi. Hind okeanining sharqiy qismida joylashgan. Indoneziyadagi islam diniga o'tmagan Arafura qabilasi nomidan olingan.

Xaritada 61 raqami bilan Shimoliy Muz okeani havzasiga qarashli Barens dengizi tasvirlangan. Toponimikasi. Shimoliy Muz okeanining g'arbiy dengizi hisoblanadi. Ilgari Shimoliy dengiz, Moskva dengizi, Muz dengizi nomlari bilan yuritilgan. XVI asrda Golland sayyohi V. Barens bu dengizda suzganida halok bo'lgan. Nemis geografi A. Tetermen uni 1852-yilda Bares dengizi deb atadi.

Xaritada 62 raqami bilan Shimoliy Muz okeani havzasiga qarashli Kara dengizi tasvirlangan. Toponimikasi: Shimoliy Muz okeanining bir qismi. Shu dengizga quyiladigan Kara daryosi nomidan olingan. Daryoning o'zi nemischa Arayaga - "egri suv", "jarlik" deyiladi, chunki u chuqurlikda ilon izi bo'lib oqadi.

Boshqa dengizlar ham xuddi shunday texnologiya bilan davom ettiriladi.

Chegaralar: ----- — okeanlar; — — dengizlar.

Atlantika okeani dengizlari: 1. Boltiq. 2. Shimoliy. 3. Irlandiya. 4. O'rta. 5. Alboran. 6. Balear. 7. Liguriy. 8. Tirren. 9. Adriatika. 10. Ioniya. 11. Egey. 12. Krit. 13. Marmar. 14. Qora. 15. Azov. 16. Karib. 17. Sargasso. 18. Skosha. 19. Ueddell. 20. Lazarev.

Tinch okean dengizlari: 21. Bering. 22. Oxota. 23. Sharqiy (Yapon). 24. Sariq. 25. Sharqiy Xitoy. 26. Janubiy Xitoy. 27. Filippin. 28. Sulu (Sibiryan, Basayas, Samar, Samotor, Mindanao dengizlari bilan). 29. Sulavesi. 30. Moluk. 31. Xalmixer. 32. Seram. 33. Yava. 34. Bali. 35. Flores. 36. Savu. 37. Banda. 38. Yangi Gvineya. 39. Solomon. 40. Marjon. 41. Fiji. 42. Koro. 43. Tasman. 44. Ross. 45. Amundsen. 46. Bellingsgauzen.

Hind okeani dengizlari: 47. Qizil. 48. Arabiston. 49. Andaman. 50. Timor. 51. Arafur. 52. Dyurvill. 53. Mouson. 54. Deyvis. 55. Hamdo'stlik. 56. Kosmonavtlar. 57. Riser-Larsen.

Shimoliy Muz okeani dengizlari: 58. Grenlandiya. 59. Norvegiya. 60. Oq. 61. Barends. 62. Kara. 63. Laptevlar. 64. Sharqiy Sibir. 65. Chukotka. 66. Bofort. 67. Baffin.

Karib dengizi - Markaziy Amerikada. Indeyslarning Karib qabilasi nomidan olingan.

Kaspiy dengizi - MDH hududidagi dengiz. Uning nomlari ko'p. Dengizning Kavkaz tomonida Kaspiy qabilasi yashagan. Ushbu etnomim butun dengizning nomi bo'lib qolgan.

Laptevlar dengizi - Shimoliy Muz okeanining sharqiy qismida joylashgan. Uni 1733-1741- yillarda aka-uka Dimitriy va Xariton Laptevlavlар tekshirgani uchun shunday nom berilgan.

Niguriya dengizi - O'rta dengizning bir qismi hisoblanadi. Nigur xalqining nomidan olingan.

Marmor dengizi - Qora dengiz bilan Egey dengizi orasidagi dengiz hisoblanadi. Qadim zamonda yunoncha Protonsida (qora dengiz yoni) deb atalgan. Dengiz o'rta dengizi oroldan oq marmor qazib olingan. Keyinchalik orol ham dengiz ham Marmor deb atalgan.

Oq dengiz - Yevropaning shimolida joylashgan, Shimoliy Muz okeanidagi dengiz. Dengiz yil davomida 200 kun oppoq muz bilan qoplangan bo'ladi. Shuning uchun Oq dengiz deb atatalgan.

Ross dengizi - Antarktida sohilida joylashgan. Ingliz sayyohi Jems Ross birinchi bo'lib tekshirgan va uning ismi bilan atalgan.

Sargasso dengizi - Atlantika okeanining bir qismi, suv o'tlari ko'pligi sababli kemada suzish qiyinlashadigan "dengiz". Portugalcha Sargasso - "uzun", ya'ni pufaksimon degan so'zdan olingan.

Sariq dengizi - Xitoyning sharqidagi dengiz. Daryo oqizib keltirgan tog' turpoq, ya'ni loyqa suvning rangiga nisbatan berilgan.